**«RO‘YXATGA OLINGAN»**

Toshkent shaxar Mirzo Ulug‘bek tumani Davlat xizmatlari markazi tomonidan

2023 yil «5» 09

«O’ZBEKGEOFIZIKA» AJ
Yagona aksiyadorining
2023-yil «28» avgust
135/09-3-qr -sonli qaroriga
**«2-Ilova»**

**R. Yusupjonov**
Boshqaruv Raisi

**«O’ZBEKGEOFIZIKA»**
**AKSIYADORLIK JAMIYATI**

**USTAVI**
(yangi tahriri)

Toshkent-2023 yil

**«ЗАРЕГИСТРИРОВАНО»**

Центром государственных услуг Мирзо Улугбекского района города Ташкента

«5» 09 2023 год

**«Приложение №2»**

к Решению единственного акционера АО «УЗБЕКГЕОФИЗИКА» от «28» августа 2023 года №135/09-qr

**Р. Юсупжонов**
Председатель Правления

**УСТАВ**
(в новой редакции)

**АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА**
**«УЗБЕКГЕОФИЗИКА»**

Ташкент-2023 год

## 1. Jamiyatning yuridik maqomi, firma nomi, joylashgan yeri va elektron pochta manzili

1.1. Jamiyatning davlat tilidagi to‘liq firma nomi:
**«O’ZBEKGEOFIZIKA» aksiyadorlik jamiyati**;
Jamiyatning davlat tilidagi qisqartirilgan firma nomi:
**«O’ZBEKGEOFIZIKA» AJ**;
Jamiyatning rus tilidagi to‘liq firma nomi:
**Акционерное общество «УЗБЕКГЕОФИЗИКА»**;
Jamiyatning rus tilidagi qisqartirilgan firma nomi:
**АО «УЗБЕКГЕОФИЗИКА».**
Jamiyatning ingliz tilidagi to’liq firma nomi:
**«UZBEKGEOFIZIKA» Join-Stock Company**;
Jamiyatning ingliz tilidagi qisqartirilgan firma nomi:
**«UZBEKGEOFIZIKA» JSC**.

1.2. Bundan buyon matnda “Jamiyat” deb ataluvchi «O’zbekgeofizika» aksiyadorlik jamiyatining joylashgan yeri va pochta manzili:

100037, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, “Geofizika” MFY, Buyuk kelajak ko‘chasi, 5-uy.

Jamiyatning elektron pochta manzili: kancelyariya@uzbekgeofizika.uz.

1.3. Jamiyat yuridik shaxs bo‘lib, u o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

1.4. Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

1.5. Jamiyat faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

1.6. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisob varaqlari ochishga haqlidir.

1.7. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishi lozim. Muhrda bir

## 1. Юридический статус, фирменное наименование, место расположения и электронный адрес Общества

1.1. Полное фирменное наименование Общества на государственном языке:
**«O‘ZBEKGEOFIZIKA» aksiyadorlik jamiyati**;
сокращенное фирменное наименование Общества на государственном языке:
**«O‘ZBEKGEOFIZIKA» AJ.**
Полное фирменное наименование Общества на русском языке:
**Акционерное общество «УЗБЕКГЕОФИЗИКА»;**
сокращенное фирменное наименование Общества на русском языке:
**АО «УЗБЕКГЕОФИЗИКА».**
Полное фирменное наименование Общества на английском языке:
**«UZBEKGEOFIZIKA» Join-Stock Company**;
сокращенное фирменное наименование Общества на английском языке:
**«UZBEKGEOFIZIKA» JSC**.

1.2. Место расположения и почтовый адрес акционерного общества «Узбекгеофизика», именуемого далее по тексту «Общество»:

100037, Республика Узбекистан, город Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, МСГ «Геофизика», улица Буюк келажак, 5.

Электронный адрес Общества: kancelyariya@uzbekgeofizika.uz.

1.3. Общество является юридическим лицом и имеет в собственности обособленное имущество, учитываемое на его самостоятельном балансе, в том числе уставный фонд (уставный капитал), может от своего имени приобретать и осуществлять имущественные и личные неимущественные права, нести обязанности, быть истцом и ответчиком в суде.

1.4. Общество приобретает статус юридического лица с момента его государственной регистрации.

1.5. Общество создается без ограничения срока деятельности.

1.6. Общество вправе открывать в установленном порядке банковские счета на территории Республики Узбекистан и за ее пределами.

1.7. Общество должно иметь круглую печать, содержащую его полное фирменное наименование на государственном языке и указание места его

| | |
|---|---|
| vaqtning o‘zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.<br>1.8. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.<br>1.9. Jamiyatning joylashgan yeri u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joyga ko‘ra belgilanadi.<br>1.10. Jamiyat barcha aksiyadorlariga nisbatan ularning ulushlari, daromadlar darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar teng munosabatni ta’minlaydi. | нахождения. В печати может быть одновременно указано фирменное наименование на любом другом языке.<br>1.8. Общество вправе иметь штампы и бланки со своим наименованием, собственную эмблему, а также зарегистрированные в установленном порядке товарный знак и другие средства визуальной идентификации, отражающие особенные признаки участников гражданских отношений, товаров, работ и услуг.<br>1.9. Место нахождения Общества определяется местом его государственной регистрации.<br>1.10. Общество обеспечивает равное отношение по отношению ко всем акционерам независимо от уровня их долей, доходов, пола, расы, религии, национальности, языка, социального происхождения, личности и социального положения. |
| **2. Jamiyat faoliyatining sohasi (asosiy yo‘nalishlari) va maqsadi** | **2. Предмет (основные направления) и цели деятельности Общества** |
| 2.1. Jamiyat faoliyatining maqsadi O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida neft va gaz manbalarida geofizik tadqiqot ishlarini amalga oshirayotganda daromad olishdir.<br>2.2. Jamiyat faoliyatining maqsadi O‘zbekiston Respublikasida hududiy, detal-qidiruv, tajriba-metodik, kon, maqsadiga taalluqli va boshqa turdagi geofizik ishlarni hamda ularga qo‘shimcha ravishda yuzaga keladigan tadqiqotlarni amalga oshirishdir.<br>2.3. Jamiyatning asosiy funksiyalari:<br>2.3.1. O‘zbekistonning barcha neft va gaz mavjud hududlarida geofizik ishlarni muvofiqlashtirish.<br>2.3.2. Qidiruv va kon geofizika ishlarini amalga oshirayotganda yagona texnik va uslubiy siyosatini amalga oshirish.<br>2.3.3. Maxsus ma’lumotni qayta ishlash markazlarida dala va kon geofizik ma’lumotlarni bir xil, bir-biriga to‘g‘ri keladigan ko‘rinishda qayta ishlashni ta’minlash.<br>2.3.4. Eng zamonaviy maxsus asbob-uskunalarni va ilg‘or usul va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish. | 2.1. Целью деятельности Общества является получение прибыли путем проведения геофизических исследовательских работ на нефтяных и газовых месторождениях на территории Республики Узбекистан и за ее пределами.<br>2.2. Предметом деятельности Общества является осуществление в Республике Узбекистан территориальных, детально-изыскательских, опытно-методических, приисковых и других геофизических работ, а также дополнительно возникающих в связи с этими работами.<br>2.3. Основными функциями Общества являются:<br>2.3.1. Координация геофизических работ на всех имеющихся нефтяных и газовых месторождениях на территории Республики Узбекистан.<br>2.3.2. Осуществление единой технической и методической политики при осуществлении поисковых и скважинно-геофизических работ.<br>2.3.3. Обеспечение обработки в центрах обработки специальных данных скважинно-геофизических данных в одинаковом, взаимосоответствующем виде.<br>2.3.4. Внедрение в производство наиболее современного специального оборудования, передовых методов и технологий. |

| | |
|---|---|
| 2.3.5. Quyidagi yo‘llar bilan O‘zbekistondagi neft va gaz konlarini qidiruv ishlarida geofizik ishlarning eng yuqori geolog-iqtisodiy samaradorligini ta’minlash:<br>- ishlab chiqarishning, Jamiyatning barcha qatnashchilarining barqaror daromadini ta’minlashda shart-sharoit yaratish;<br>- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmatlar rentabelligini oshirishni ta’minlash;<br>- ishlab chiqarish, savdo va ilmiy-texnik faoliyatlarni sarmoyalash. | 2.3.5. Обеспечение самой высокой геолого-экономической эффективности геофизических работ в ходе поиска нефтяных и газовых месторождений Узбекистана путем:<br>– создания условий для обеспечения устойчивой прибыли производства, всех участников Общества;<br>– уменьшения производственных издержек, повышения рентабельности производства и услуг, оказываемых другим юридическим и физическим лицам;<br>– инвестиций в производство, торговлю и научно-техническую деятельность. |
| 2.4. Jamiyat quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:<br>2.4.1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab va undan tashqarida maxsus geofizik tadqiqotlarni o‘tkazish.<br>2.4.2. Oldindan rejalashtirish, qidiruvda neft-gaz konli obyektlarni tayyorlash usullarini takomillashtirish, geofizik tadqiqotlar imkoniyatlarini kengaytiradigan va ishlab chiqarish va ish sifatini oshirishni ta’minlaydigan dala va quduq tadqiqotlari usullarini tatbiq qilish. | 2.4. Общество осуществляет следующие виды деятельности:<br>2.4.1. Проведение специальных геофизических исследований по территории Республики Узбекистан и за ее пределами.<br>2.4.2. Предварительное планирование, совершенствование методов подготовки объектов нефтегазовых месторождений, внедрение методов исследования скважин и пластов, обеспечивающих расширение возможности геофизических исследований и обеспечивающих повышение производительности и качества работы. |
| 2.4.3. Geofizik tadqiqotlari ma’lumotlar bankini yaratish va keng ommaning o‘rnatilgan tartibda foydalana olishini ta’minlash. | 2.4.3. Создание банка данных геофизических исследований и обеспечение возможности его использования широкой публикой в установленном порядке. |
| 2.4.4. Geologik-qidiruv ishlari va obyektlarning muhim yo‘nalishlarida Jamiyatning ilmiy-metodik potensialini va moddiy-texnik resurslarini jamlashni ko‘zda tutadigan geofizik tadqiqotlarning majmuiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. | 2.4.4. Разработка и осуществление комплексных программ геофизических исследований, предусматривающих сосредоточение научно-методического потенциала Общества и материально-технических ресурсов на важных направлениях геолого-разведывательных работ и объектах. |
| 2.4.5. Buyurtmachilarning buyurtmalari asosida geofizik tadqiqotlarni amalga oshirish. | 2.4.5. Осуществление геофизических исследований по заявкам заказчиков. |
| 2.4.6. Jamiyatga ishonib topshirilgan mulkning saqlanishini, davlat va tijorat sirlarini oshkora bo‘lmasligini ta’minlash.<br>2.4.7. Ishlab chiqarishda mehnat sharoitlari, sanoat xavfsizligini, yong’in xavfsizligi qoidalariga, sanitariya va tabiatni muhofaza qilish me’yorlariga rioya qilinishini ta’minlash.<br>2.4.8. Xo‘jalik usuli bilan va shartnomalar asosida amalga oshirish yo‘li bilan ishlab chiqarish, ijtimoiy-maishiy va turar-joy obyektlarini qurish, to‘liq ta’mirlash va jixozlash. | 2.4.6. Обеспечение сохранности вверенного имущества, неразглашение государственной и коммерческой тайны.<br>2.4.7. Обеспечение безопасных условий труда на производстве, соблюдение правил пожарной безопасности, охраны природы и санитарных норм.<br>2.4.8. Строительство, капитальный ремонт и оснащение производства, объектов социально-бытового назначения и жилых домов путем хозяйствования и заключения договоров. |

| | |
|---|---|
| 2.4.9. Xalq iste’mol mollarini ishlab chiqarish va aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish. | 2.4.9. Производство товаров народного потребления и оказание платных услуг населению. |
| 2.4.10. Jamiyat ishchilarining ijtimoiy himoyasini ta’minlash. | 2.4.10. Обеспечение социальной защиты работников Общества. |
| 2.4.11. Ulgurji va chakana savdo bilan shug‘ullanish. | 2.4.11. Занятие оптовой и розничной торговлей. |
| 2.4.12. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ta’qiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish. | 2.4.12. Осуществление других видов деятельности, не запрещенных законодательством Республики Узбекистан. |
| 2.5. Vakolatli davlat organlarining maxsus ruxsatnoma (litsenziya)si talab qilinadigan faoliyat turlarini Jamiyat tegishli ruxsatnoma (litsenziya)ni qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda olganidan so‘ng amalga oshiradi. | 2.5. Виды деятельности, для осуществления которых требуется получение специального разрешения (лицензии), Общество осуществляет после получения соответствующего разрешения (лицензии). |
| 2.6. O‘z faoliyatini amalga oshirishda Jamiyat quyidagilarni amalga oshirishga haqli: | 2.6. При осуществлении своей деятельности Общество вправе: |
| 2.6.1. Yillik Davlat dasturlari doirasida va boshqa buyurtmalariga asosan geologik topshiriqlariga muvofiq ravishda geofizik ishlarning har bir obyekt bo‘yicha yillik rejasini tasdiqlash. | 2.6.1. Утверждение годового плана геофизических работ по каждому объекту в соответствии с геологическим заданием в рамках годовых Государственных программ и других заказов. |
| 2.6.2. Ajratilgan yillik limitlar doirasida, buyurtmalar bo‘yicha amalga oshiriladigan geofizik ishlarni moliyalashni taqsimlash. | 2.6.2. В рамках выделенных лимитов распределить финансирование геофизических работ, осуществляемых по заказам. |
| 2.6.3. Geologik topshiriqlarni, loyiha-smeta hujjatlarni va bajarilgan va tugatilgan ishlar bo‘yicha hisobotlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash huquqiga ega bo‘lgan, Jamiyatning maxsus ilmiy-texnik kengashini shakllantirish. | 2.6.3. Формирование специального научно-технического совета общества, который имеет право рассматривать и утверждать геологические поручения, проектно-сметную документацию и отчеты по выполненным и завершенным работам. |
| 2.6.4. Tugatilgan geolog-geofizik ishlarning xarajatlarini hisobdan chiqarish. | 2.6.4. Списание расходов по выполненным геолого-геофизических работам. |
| 2.6.5. Jamiyatning standartlari va boshqa me’yoriy hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2.6.5. Разработка и утверждение стандартов и других нормативных документов Общества. |
| 2.6.6. Geolog-qidiruv ishlarini rivojlantirish majmuiy dasturlariga muvofiq geofizik ishlab chiqarishni texnik jixatdan qayta qurollantirish va geofizik tadqiqotlarning ilmiy-texnik yo‘nalishlarini belgilash. | 2.6.6. Техническое переоснащение геофизического производства и определение научно-технических направлений геофизических исследований согласно комплексным программам развития геолого-поисковых работ. |
| 2.6.7. Geofizik ishlar uchun asbob-uskuna va materiallarni keltirishda texnik buyurtmachi vazifalarini bajarish. | 2.6.7. Выполнение обязанности технического заказчика при доставке оборудования и материалов для геофизических работ. |
| 2.6.8. Maxsus geofizik asboblarini va uskunalarini testdan o‘tkazish va ularga metrologik xizmat ko‘rsatish. | 2.6.8. Тестирование специального геофизического оборудования и приборов, оказание им метеорологических услуг. |
| 2.6.9. O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘char radiotelefon aloqaning lokal tarmog‘ini qurish va ishlatish. | 2.6.9. Строительство и эксплуатация локальной сети переносной радиотелефонной связи на территории Республики Узбекистан. |
| 2.6.10. Ishlab chiqarishda yetakchi kasblarga kadrlarni muxsus usulda tayyorlash i ularning malakasini oshirish. | 2.6.10. Организация специальной подготовки кадров для геофизических работ и повышения их квалификации. |

| | |
|---|---|
| 2.6.11. Mehnatkashlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan mehnatga xaq to'lashning progressiv shaklini tatbiq qilish. | 2.6.11. Внедрение прогрессивных методов оплаты труда, обеспечивающих социальную защиту трудящихся. |
| 2.6.12. Jamiyat faoliyatini amalga oshirishda vujudga keladigan, amaldagi direktiv hujjatlarga muvofiq Jamiyatning tijorat sirini tashkil qiladigan ma'lumotlarning tarkibini, hajmini va himoya tartibini belgilash. | 2.6.12. Определение состава, объема и порядка защиты сведений, возникающих в процессе осуществления деятельности Общества и составляющих коммерческую тайну Общества, согласно действующим директивным документам. |
| 2.6.13. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat turlari. | 2.6.13. Любые другие виды деятельности, не запрещенные законодательством Республики Узбекистан. |
| 2.6.14. Jamiyat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgan holda amalga oshiriladigan o'z faoliyat turlarini amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan tartib va qoidalar asosida amalga oshiradi. | 2.6.14. Общество виды своей деятельности, осуществляемые при наличии специального разрешения (лицензии), осуществляет на основании порядка и правил, предусмотренных действующим законодательством. |
| **3. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori** | **3. Размер уставного фонда (уставного капитала) Общества** |
| 3.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak. | 3.1. Уставный фонд (уставный капитал) Общества составляется из номинальной стоимости акций Общества, приобретенных акционерами, и выражается в национальной валюте Республики Узбекистан. Номинальная стоимость всех выпускаемых Обществом акций Общества должна быть одинаковой. |
| 3.2. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) Jamiyat mol-mulkining Jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi. | 3.2. Уставный фонд (уставный капитал) Общества определяет минимальный размер имущества Общества, гарантирующего интересы его кредиторов. |
| 3.3. Jamiyat oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma besh foizidan oshmasligi kerak. | 3.3. Общество обязано разместить простые акции, а также вправе размещать привилегированные акций. Номинальная стоимость размещенных привилегированных акций не должна превышать двадцати пяти процентов от уставного фонда (уставного капитала) Общества. |
| 3.4. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori 374 429 729 674 (uch yuz yetmish to'rt milliard to'rt yuz yigirma to'qqiz million yetti yuz yigirma to'qqiz ming olti yuz yetmish to'rt) so'mni tashkil qiladi hamda nominal qiymati 286 (ikki yuz sakson olti) so'm bo'lgan 1 309 194 859 (bir miliard uch yuz to'qqiz million bir yuz to'qson to'rt ming sakkiz yuz ellik to'qqiz) dona aksiyalarga, shundan 1 272 059 259 (bir milliard ikki yuz yetmish ikki million ellik to'qqiz ming ikki yuz ellik to'qqiz) dona egasi yozilgan oddiy va 37 135 600 (o'ttiz yetti million bir yuz o'ttiz besh ming olti yuz) dona egasi yozilgan imtiyozli aksiyalarga bo'lingan. | 3.4. Уставный фонд (уставный капитал) Общества составляет 374 429 729 674 (триста семьдесят четыре миллиарда четыреста двадцать девять миллионов семьсот двадцать девять тысяч шестьсот семьдесят четыре) сумов и состоит из 1 309 194 859 (один миллиард триста девять миллионов сто девяносто четыре тысячи восемьсот пятьдесят девять) штук акций с номинальной стоимостью 286 (двести восемьдесят шесть) сума, из них 1 272 059 259 (один миллиард двести семьдесят два миллиона пятьдесят девять тысяч двести пятьдесят девять) штук акций являются именными простыми и 37 135 600 (тридцать семь миллионов сто тридцать |

| | |
|---|---|
| | пять тысяч шестьсот) штук акций являются именными привилегированными. |
| **4. Jamiyat aksiyalarining soni, nominal qiymati, turlari** | **4. Количество, номинальная стоимость и виды акций Общества** |
| 4.1. Jamiyat tomonidan 1 272 059 259 (bir milliard ikki yuz yetmish ikki million ellik to'qqiz ming ikki yuz ellik to'qqiz) dona egasi yozilgan oddiy va 37 135 600 (o‘ttiz yetti million bir yuz o‘ttiz besh ming olti yuz) dona egasi yozilgan imtiyozli aksiyalar chiqarilgan va joylashtirilgan. | 4.1. Обществом выпущены и размещены 1 272 059 259 (один миллиард двести семьдесят два миллиона пятьдесят девять тысяч двести пятьдесят девять) штук именных простых акций и 37 135 600 (тридцать семь миллионов сто тридцать пять тысяч шестьсот) штук именных привилегированных акций. |
| 4.2. Jamiyat ustav fondini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo‘shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo‘lgan e’lon qilingan aksiyalarining soni 2 388 569 388 (ikki milliard uch yuz sakson sakkiz million besh yuz oltmish to'qqiz ming uch yuz sakson sakkiz) dona egasi yozilgan oddiy va 600 000 000 (olti yuz million) dona egasi yozilgan imtiyozli aksiyalardan iborat. | 4.2. Количество объявленных акций, которые Общество в целях увеличения размера уставного фонда может дополнительно выпустить дополнительно к размещенным акциям, составляет 2 388 569 388 (два миллиарда триста восемьдесят восемь миллионов пятьсот шестьдесят девять тысяч триста восемьдесят восемь) штук простых именных акций и 600 000 000 (олти юз миллион) штук именных привилегированных акций. |
| 4.3. Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati 286 (ikki yuz sakson olti) so‘m. | 4.3. Номинальная стоимость акции Общества составляет 286 (двести восемьдесят шесть) сума. |
| **5. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish va kamaytirish** | **5. Порядок увеличения и уменьшения уставного фонда (уставного капитала) Общества** |
| 5.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin. | 5.1. Уставный фонд (уставный капитал) Общества может быть увеличен путем размещения дополнительных акций. |
| 5.2. Qo‘shimcha aksiyalar mazkur Jamiyat ustavida belgilangan e’lon qilingan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin. | 5.2. Дополнительные акции могут быть размещены Обществом только в пределах количества объявленных акций, установленного Уставом Общества. |
| 5.3. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorlar Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. | 5.3. Решения об увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества принимаются наблюдательным советом Общества единогласно. |
| 5.4. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorda joylashtiriladigan qo‘shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo‘lishi kerak. | 5.4. Решением об увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества должны быть определены количество размещаемых дополнительных простых акций и привилегированных акций, сроки и условия их размещения. |
| 5.5. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida | 5.5. Увеличение уставного фонда Общества путем размещения дополнительных акций регистрируется в размере номинальной стоимости |

| | |
|---|---|
| ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda mazkur ustavda ko‘rsatilgan e’lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak.<br>5.6. Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo‘shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarordir.<br>5.7. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o‘z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.<br>5.8. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) uning o‘z kapitali hisobidan ko‘paytirishda qo‘shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo‘lsa, ayni o‘sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko‘paytirilishi natijasida ko‘paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta’minlanmaydigan bo‘lsa, Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.<br>5.9. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxi Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon’yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.<br>Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish chog‘ida ularga haq to‘lash ularni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilanganidan kam bo‘lmagan narx bo‘yicha amalga oshiriladi.<br>Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko‘paytirilayotganda Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalariga uning o‘z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo‘shimcha aksiyalar bilan to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to‘langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi. | размещенных дополнительных акций. При этом количество объявленных акций определенных категорий и типов должно быть уменьшено на число размещенных дополнительных акций этих категорий и типов.<br>5.6. Решение соответствующего руководящего органа о выпуске дополнительных акций является решением об увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества.<br>5.7. Увеличение уставного фонда (уставного капитала) Общества может осуществляться за счет привлеченных инвестиций, собственного капитала Общества и начисленных дивидендов в порядке, установленном законодательством.<br>5.8. При увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества путем размещения дополнительных акций за счет собственного капитала, данные акции распределяются между всеми акционерами. При этом в зависимости от того, какой тип акций принадлежит акционеру, ему распределяется именно такой тип акций, пропорционально количеству принадлежащих ему акций. Если в результате увеличения размера уставного фонда (уставного капитала) Общества не обеспечено в соответствие суммы увеличения номинальной стоимости одной акции, то такое увеличение уставного фонда (уставного капитала) Общества не допускается.<br>5.9. При принятии решения о размещении акций, в том числе среди акционеров, цена размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций устанавливается Наблюдательным советом Общества исходя из конъюнктуры цен, складывающихся на площадках организаторов торгов ценными бумагами.<br>При размещении акций и иных ценных бумаг Общества их оплата осуществляется по цене, не ниже определенного в решении об их выпуске.<br>В случае оплаты дополнительных акций Общества при увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества за счет его собственного капитала, а также дивидендов, по которым принято решение о выплате их дополнительными акциями, размещение таких акций производится по номинальной стоимости акций Общества. |

| | |
|---|---|
| 5.10. Jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida, birja va birjadan tashqari bozorlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtirishga haqli. | 5.10. Общество вправе размещать акции и другие ценные бумаги, конвертируемые в акции, путем открытой и закрытой подписки на биржах и внебиржевых рынках в порядке, установленном законодательном. |
| 5.11. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag‘lari bilan to‘lanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni o‘ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga (bundan buyon matnda imtiyozli huquq deb yuritiladi) ega. | 5.11. При размещении Обществом акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции, оплачиваемых денежными средствами, акционеры - владельцы голосующих акций имеют преимущественное право на их приобретение. Акционер, в том числе голосовавший против либо отсутствовавший на общем собрании акционеров, имеет преимущественное право приобретения акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции (далее - преимущественное право), в количестве, пропорциональном количеству принадлежащих ему акций этого типа. |
| 5.12. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish chog‘ida ularga haq to‘lash pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo‘lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlariga haq to‘lash tartibi ularni chiqarish to‘g‘risidagi qarorida belgilab qo‘yiladi. | 5.12. При размещении акций и иных ценных бумаг Общества их оплата осуществляется денежными и другими средствами платежа, имуществом, а также правами (в том числе имущественными), имеющими денежную оценку. Порядок оплаты дополнительных акций Общества определяется решением об их выпуске. |
| 5.13. Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to‘lanishi lozim. | 5.13. Дополнительные акции Общества должны быть оплачены в течение срока размещения, указанного в решении о выпуске этих акций. |
| 5.14. Agar Jamiyatning puldan o‘zga vositalar bilan haqi to‘lanayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko‘pni tashkil etsa, Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining haqi sifatida kiritilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi tashkilot tomonidan chiqarilishi zarur. | 5.14. Если номинальная стоимость оплачиваемых не денежными средствами акций и иных ценных бумаг Общества составляет более двухсоткратного размера установленной законодательством минимальной заработной платы, то необходима денежная оценка оценочной организацией имущества, вносимого в оплату акций и иных ценных бумаг Общества. |
| 5.15. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo‘li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin. | 5.15. Уставный фонд (уставный капитал) Общества может быть уменьшен путем уменьшения номинальной стоимости акций или сокращения их общего количества, в том числе путем приобретения части акций Обществом с последующим их погашением. |
| 5.16. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirishga, agar buning natijasida uning miqdori Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) Jamiyat ustavidagi tegishli o‘zgartirishlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sanasida aniqlanadigan, O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunining 17-moddasida belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, haqli emas. | 5.16. Общество не вправе уменьшать уставный фонд (уставный капитал), если в результате этого его размер станет меньше установленного статьей 17 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» минимального размера уставного фонда (уставного капитала) Общества, определяемого на дату регистрации соответствующих изменений в Уставе Общества. |

| | |
|---|---|
| 5.17. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to‘g‘risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o‘zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. | 5.17. Решение об уменьшении уставного фонда (уставного капитала) Общества и о внесении соответствующих изменений в устав принимается общим собранием акционеров. |
| 5.18. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish sabablarini ko‘rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi. | 5.18. Принимая решение об уменьшении уставного фонда (уставного капитала), общее собрание акционеров указывает причины уменьшения уставного фонда (уставного капитала) и устанавливает порядок его уменьшения. |
| 5.19. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay o‘z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor qiladi. Kreditorlar Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to‘g‘risida o‘zlariga bildirish yuborilgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatdan o‘z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini qoplashini talab qilishga haqli. | 5.19. Не позднее 30 дней с даты принятия решения об уменьшении уставного фонда (уставного капитала) Общество в письменной форме уведомляет об этом своих кредиторов. Кредиторы вправе, не позднее тридцати дней с даты направления им уведомления об уменьшении уставного фонда (уставного капитала) Общества, потребовать от Общества досрочного исполнения его обязательств и возмещения связанных с этим убытков. |
| **6. Jamiyatning korporativ obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari** | **6. Корпоративные облигации и другие ценные бумаги Общества** |
| 6.1. Jamiyat korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli. | 6.1. Общество вправе выпускать и размещать корпоративные облигации и другие ценные бумаги. |
| 6.2. Jamiyatning korporativ obligatsiyalari Jamiyat aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlar bo‘lishi mumkin. | 6.2. Корпоративные облигации могут быть ценными бумагами, обмениваемыми на акции Общества. |
| 6.3. Jamiyat mol-mulk bilan ta’minlangan korporativ obligatsiyalarni ularni chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish sanasidagi o‘z kapitali miqdori doirasida chiqarishga haqli. | 6.3. Общество вправе выпускать обеспеченные имуществом Общества корпоративные облигации, в рамках размера собственного капитала на день принятия такого решения. |
| 6.4. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi. | 6.4. Выпуск Обществом корпоративных облигаций, в том числе облигаций, конвертируемых в акции Общества, осуществляется согласно решению, принятому наблюдательным советом единогласно. |
| 6.5. Jamiyat tomonidan Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda, mazkur qaror Jamiyat kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak. | 6.5. В случае выпуска Обществом корпоративных облигаций, конвертируемых в акции Общества, согласно решению, принятому наблюдательным советом, это решение должно быть принято всеми членами наблюдательного совета единогласно. |

| 7. Jamiyatning fondlari | 7. Фонды Общества |
| --- | --- |
| 7.1. Jamiyatda sof foyda hisobidan “Zaxira fondi”, “Uy-joy qurish va sotib olish fondi” va “Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” tashkil etiladi. | 7.1. В Обществе формируются «Резервный фонд», «Фонд строительства и приобретения жилья», «Фонд охраны труда» и «Фонд поддержки инновационной деятельности» за счет чистой прибыли Общества. |
| 7.2. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) o‘n besh foizi miqdorida zaxira fondi tashkil etiladi. | 7.2. В Обществе создается резервный фонд в размере пятнадцати процентов от его уставного фонда (уставного капитала). |
| 7.3. Jamiyatning zaxira fondi mazkur ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalarning miqdori mazkur ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak. | 7.3. Резервный фонд Общества формируется путем обязательных ежегодных отчислений от чистой прибыли до достижения им размера, установленного настоящим Уставом. Размер ежегодных отчислений предусматривается Уставом Общества, но не может быть менее пяти процентов от чистой прибыли до достижения размера, установленного настоящим Уставом. |
| 7.4. Boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning zararlari o‘rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi. | 7.4. Резервный фонд Общества предназначен для покрытия его убытков, изъятия из обращения корпоративных облигаций Общества, выплаты дивидендов по привилегированным акциям и выкупа акций Общества. |
| 7.5. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas. | 7.5. Резервный фонд не может быть использован для иных целей. |
| 7.6. Agar zaxira fondi to‘liq yoki qisman sarflansa, majburiy ajratmalar o‘tkazish tiklanadi. | 7.6. После полного или частичного расходования средств резервного фонда, обязательные отчисления возобновляются. |
| 7.7. “Uy-joyni qurish va sotib olish fondi”, “Mehnatni muhofaza qilish fondi” va “Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi”ni shakllantirish kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida tasdiqlanish sharti bilan Jamiyat sof foydasidan har yilgi ajratmalar qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. | 7.7. Формирование «Фонда строительства и приобретения жилья», «Фонда охраны труда» и «Фонда поддержки инновационной деятельности» осуществляется путем ежегодных отчислений из чистой прибыли Общества по рекомендации наблюдательного совета с условием утверждения на общем собрании акционеров. |
| 7.8. Uy-joyni qurish va sotib olish fondining mablag‘lari Jamiyat ishchi-xodimlarini uy-joy bilan ta’minlashga ishlatiladi. | 7.8. Фонд для строительства и покупки жилья используется для обеспечения работников жильем. |
| 7.9. Mehnatni muhofaza qilish fondining mablag‘lari xodimlarni mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash, ularni sog‘lomlashtirish hamda boshqa maqsadlarga belgilangan tartibda yo‘naltiriladi. | 7.9. Средства фонда охраны труда направляются для улучшения трудовых условий работников, для их оздоровления и других целей в установленном порядке. |
| 7.10. “O‘zbekgeofizika” AJda maxsus hisobvaraqda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori bilan sof foydaning 10 foizigacha bo‘lgan miqdorda ajratmalar hisobidan “Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” tashkil etiladi. | 7.10. В АО «Узбекгеофизика» на специальном счете создаётся «Фонд поддержки инновационной деятельности» за счет отчислений в размере до 10 процентов от чистой прибыли, по решению общего собрание акционеров. |

| | |
|---|---|
| “O‘zbekgeofizika” AJ Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini boshqarish ushbu Jamg‘arma to‘g‘risidagi Nizom asosida amalga oshiriladi. | Управление «Фондом поддержки инновационной деятельности АО «Узбекгеофизика» осуществляется на основании Положения о данном Фонде. |
| **8. Dividendlarni to‘lash** | **8. Выплата дивидендов** |
| 8.1. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.<br>8.2. Dividendlarni to‘lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran oltmish kundan kech bo‘lmasligi lozim.<br>8.3. Dividendlarni to‘lash chog‘ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo‘yicha, so‘ngra oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha qat’iy belgilangan dividendlarni to‘lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo‘lgan taqdirda Jamiyat mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to‘lashni rad etishga haqli emas. Jamiyat rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to‘lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Jamiyat yetarli miqdorda foydaga ega bo‘lmagan yoki zarar ko‘rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar Jamiyat tomonidan Jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida to‘lanishi mumkin.<br>8.4. Jamiyatning imtiyozlari aksiyalari bo‘yicha aksiyalarning nominal qiymatidan 25 (yigirma besh) foiz miqdorida dividendlar to‘lanadi.<br>8.5. Jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘lanadigan qiymat (tugatilish qiymati) imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatining 100 foizini tashkil qiladi.<br>8.6. O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunining 37-moddasida nazarda tutilgan xollarda imtiyozli aksiyalarni Jamiyat tomonidan sotib olish imtiyozli aksiyalar nominal qiymatining 100 foiziga teng narx bo‘yicha amalga oshiriladi.<br>8.7. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlarni to‘lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo‘lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.<br>8.8. Aksiyadorlik jamiyati tuzilgan shartnomaga muvofiq Markaziy depozitariy va (yoki) investitsiya vositachilari orqali dividendlar to‘lovini amalga oshirish huquqiga ega. | 8.1. Общество вправе по результатам первого квартала, полугодия, девяти месяцев финансового года и (или) по результатам финансового года принимать решения о выплате дивидендов по размещенным акциям.<br>8.2. Дата выплаты дивидендов не может быть позднее шестидесяти дней со дня принятия такого решения.<br>8.3. При выплате дивидендов в первую очередь выплачиваются дивиденды по привилегированным акциям, затем дивиденды по простым акциям. При наличии прибыли, достаточной для выплаты фиксированных дивидендов по привилегированным акциям, Общество не вправе отказать держателям указанных акций в выплате дивидендов. В случае отказа Общества акционеры могут потребовать выплаты дивидендов через суд. Выплата Обществом дивидендов по привилегированным акциям в случае недостаточности прибыли или убыточности Общества возможна только за счет и в пределах резервного фонда Общества, созданного для этой цели.<br>8.4. Дивиденды по привилегированным акциям выплачиваются в размере 25 (двадцать пять) процентов от номинальной стоимости акции.<br>8.5. При ликвидации Общества размер выплаты (ликвидационная стоимость) по привилегированным акциям составляет 100 процентов от номинальной стоимости привилегированных акций.<br>8.6. Приобретение Обществом привилегированных акций в случаях, предусмотренных статьей 37 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров», осуществляется по цене, равной 100 процентам от номинальной стоимости привилегированных акций.<br>8.7. Выплата Обществом начисленных дивидендов по простым акциям осуществляется с соблюдением равных прав акционеров на получение дивидендов.<br>8.8. Акционерное общество имеет право осуществлять выплату дивидендов через Центральный депозитарий и (или) инвестиционных посредников в соответствии с заключенным договором. |

| **9. Jamiyat boshqaruv organlari, ularni shakllantirish tartibi va vakolatlari** | **9. Органы управления Обществом, порядок их формирования и их полномочия** |
|---|---|
| 9.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi (Boshqaruv) Jamiyatning organlaridir. | 9.1. Общее собрание акционеров, наблюдательный совет и исполнительный орган (Правления) являются органами Общества. |
| 9.2. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir. Agar Jamiyatning barcha oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo‘lsa aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Mazkur ustav bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak. | 9.2. Общее собрание акционеров является высшим органом управления Общества. Если все простые акции принадлежат одному акционеру, общие собрания акционеров не проводятся. Решения по вопросам, отнесенным настоящим Законом и уставом общества к компетенции общего собрания акционеров, принимаются таким акционером единолично и подлежат оформлению в письменной форме. |
| 9.3. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini Jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko‘ra bo‘lmagan taqdirda esa, Jamiyat kuzatuv kengashining a’zolaridan biri olib boradi. | 9.3. Общее собрание акционеров ведет председатель наблюдательного совета, в случае его отсутствия по уважительным причинам один из членов наблюдательного совета. |
| 9.4. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishini) o‘tkazishi shart. | 9.4. Общество обязано ежегодно проводить общее собрание акционеров (годовое общее собрание акционеров). |
| 9.5. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Qoida tariqasida, aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi 25-29 iyunda o‘tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida Jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini (agar mavjud bo‘lsa) saylash to‘g‘risidagi, Jamiyatning Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek qonunchilik hujjatlari va mazkur ustavga muvofiq Jamiyatning yillik hisoboti Jamiyat ijroiya organi va kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko‘rib chiqiladi. | 9.5. Общее собрание акционеров проводится не позднее чем через шесть месяцев после окончания финансового года. Как правило, годовое общее собрание акционеров проводится 25-29 июня. На годовом общем собрании акционеров решаются вопросы об избрании наблюдательного совета и ревизионной комиссии (при ее наличии) Общества, продлении срока договора заключенного с председателем Правления Общества, возможности его перезаключения или прекращения, а также рассматриваются законодательные документы и годовой отчет Общества, отчеты исполнительного органа и наблюдательного совета Общества о мерах, принимаемых по достижению стратегии развития Общества, и иные документы. |
| 9.6. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlari navbatdan tashqari yig‘ilishlardir. | 9.6. Проводимые помимо годового общие собрания акционеров являются внеочередными. |
| 9.7. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi va tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi, yig‘ilish o‘tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro‘yxati Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi. | 9.7. Дата и порядок проведения общего собрания акционеров, порядок участия и голосования на общем собрании акционеров, в том числе дистанционно с использованием информационно-коммуникационных технологий, порядок сообщения акционерам о его проведении, перечень предоставляемых акционерам материалов (информации) при подготовке к проведению общего собрания акционеров устанавливаются наблюдательным советом Общества. |

| | |
|---|---|
| 9.8. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:<br>1) Jamiyat ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;<br>2) Jamiyatni qayta tashkil etish;<br>3) Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;<br>4) Jamiyat kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a’zolarini saylash va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;<br>5) e’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;<br>6) Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish;<br>7) o‘z aksiyalarini olish;<br>8) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Jamiyat ijroiya organini tuzish, Boshqaruv raisini saylash (tayinlash) va uni vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Shuningdek, Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyatning Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomani, agar u Jamiyat ustavini qo‘pol tarzda buzsa yoki uning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo‘lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega;<br>9) Jamiyat taftish komissiyasining a’zolarini tuzish, saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash;<br>10) Jamiyatning yillik hisobotini tasdiqlash;<br>11) Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;<br>12) Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (agar mavjud bo‘lsa) o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (agar mavjud bo‘lsa) xulosalarini eshitish;<br>13) imtiyozli huquqni qo‘llamaslik to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunining 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;<br>14) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash;<br>15) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;<br>16) Jamiyatning ijroiya organiga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni eng yuqori miqdorlarini belgilash; | 9.8. К исключительной компетенции общего собрания акционеров относятся:<br>1) внесение изменений и дополнений в устав Общества или утверждение устава Общества в новой редакции;<br>2) реорганизация Общества;<br>3) ликвидация Общества, назначение ликвидационной комиссии и утверждение промежуточного и окончательного ликвидационных балансов;<br>4) определение количественного состава наблюдательного совета Общества, избрание его членов и досрочное прекращение их полномочий;<br>5) определение предельного размера объявленных акций;<br>6) уменьшение уставного фонда Общества;<br>7) выкуп собственных акций;<br>8) утверждение организационной структуры Общества, создание исполнительного органа Общества, избрание (назначение) председателя Правления и досрочное прекращение его полномочий. Также наблюдательный совет Общества вправе досрочно прекращать договор, заключенный с председателем Правления Общества, если им грубо нарушен устав Общества или из-за его действий (бездействия) причинен ущерб Обществу;<br>9) создание, избрание членов ревизионной комиссии Общества и досрочное прекращение их полномочий, а также утверждение положения о ревизионной комиссии.<br>10) утверждение годовых отчетов Общества;<br>11) распределение прибылей и убытков Общества;<br>12) заслушивание отчетов и заключений наблюдательного совета и ревизионной комиссии (при ее наличии) Общества по вопросам, входящим в компетенцию наблюдательного совета и ревизионной комиссии (при ее наличии) Общества, в том числе по соблюдению установленных законодательством требований по управлению Обществом;<br>13) принятие решения о неприменении преимущественного права, предусмотренного статьей 35 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров»;<br>14) утверждение регламента общего собрания акционеров;<br>15) дробление и консолидация акций;<br>16) установление размеров выплачиваемых исполнительному органу вознаграждений и (или) компенсаций, а также их предельных размеров; |

| | |
|---|---|
| 17) O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunining 8-bobiga muvofiq Jamiyat tomonidan balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 17) согласно главе 8 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров», принятие решения о совершении крупной сделки, предметом которой является имущество, стоимость которого составляет свыше пятидесяти процентов балансовой стоимости активов Общества на дату принятия решения о совершении такой сделки; |
| 18) O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunining 9-bobiga muvofiq Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 18) согласно главе 9 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров», принятие решения о заключении крупной сделки и сделки с аффилированными лицами Общества; |
| 19) Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o‘rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash; | 19) утверждение стратегии среднесрочного и долгосрочного развития Общества с определенными конкретными сроками, исходя из основных направлений и цели Общества; |
| 20) Jamiyatning rivojlanish strategiyasiga erishish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ijroiya organ va kuzatuv kengashining hisobotlarini muntazam ravishda eshitish; | 20) регулярное заслушивание отчетов исполнительного органа и наблюдательного совета о мерах, осуществляемых по достижению стратегии развития Общества; |
| 21) Jamiyatning kundalik xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni aniqlash; | 21) определение сделок, связанных с ежедневной хозяйственной деятельностью Общества; |
| 22) xayriya (homiylik) yoki beg‘araz yordamni eng ko‘p miqdorlarini belgilash; | 22) определение максимальных размеров благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи; |
| 23) mustaqil professional tashkilotlar – maslaxatchilarni jalb qilgan holda biznes jarayonlar va loyihalar Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi har yillik taxlilini o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilish; | 23) принятие решения по проведению ежегодного анализа соответствия бизнес процессов и проектов целям развития Общества с привлечением независимых профессиональных организаций-консультантов; |
| 24) majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p xaq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 24) принятие решения об определении аудиторской организации для проведения аудиторской проверки, предельного размера оплаты ее услуг и заключении с ней договора (расторжении договора); |
| 25) mazkur Jamiyat Ustaviga va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish. | 25) решение иных вопросов в соответствии с настоящим Уставом Общества и законодательством. |
| 9.9. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas. | 9.9. Вопросы, отнесенные к полномочиям общего собрания акционеров, не могут быть переданы на решение исполнительному органу Общества. |
| 9.10. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari aksiyadorlar e’tiboriga: | 9.10. Решения, принятые общим собранием акционеров, а также итоги голосования: |
| - aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tugaganidan so‘ng e’lon qilish; | – доводятся до сведения акционеров путем объявления после окончания общего собрания акционеров; |

| | |
|---|---|
| - aksiyadorlar umumiy yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sanadan ikki ish kuni davomida muhim fakt to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish yo’llari bilan yetkaziladi.<br>Agar Jamiyat aksiyalari fond birjasining listingiga kiritilgan bo‘lsa Jamiyat fond birjasining rasmiy veb-saytida tegishli axborotni e’lon qilishi shart. | – не позднее двух рабочих дней после подписания протокола общего собрания акционеров сведения о существенных фактах доводятся публичным путем.<br>Если акции Общества включены в листинг фондовой биржи, Общество обязано опубликовать на официальном веб-сайте фондовой биржи соответствующую информацию. |
| 9.11. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) 1 maydan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibiga masalalar foydani taqsimlash bo‘yicha takliflar kiritishga hamda Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga (agar mavjud bo‘lsa) bu organning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko‘rsatishga haqli, bundan kuzatuv kengashining mustaqil a’zoligiga nomzodlar ko’rsatish mustasno.<br>Aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga (agar mavjud bo‘lsa) o‘zlari kursatgan nomzodlar ruyxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabar e’lon qilingan sanadan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o‘zgartirishlar kiritishga haqli.<br>Kuzatuv kengashining mustaqil a’zoligiga nomzodlarni Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi ko‘rib chiqishi uchun, qoida tariqasida tanlov asosida ko‘rsatadi. Jamiyat kuzatuv kengashi muhokamasiga aksiyadorlar tomonidan ham tanlov asosida yoki ixtisoslashtirilgan kompaniyalar (“headhunter”) yordami bilan tanlab olingan mustaqil a’zolik uchun nomzodlar taqdim etilishi mumkin. | 9.11. Акционеры (акционер) Общества, являющиеся в совокупности владельцами не менее чем одного процента голосующих акций Общества, в срок не позднее 1 мая вправе внести предложения по распределению прибыли, а также выдвинуть кандидатов в наблюдательный совет и ревизионную комиссию (при ее наличии) Общества, число которых не может превышать количественного состава этого органа, за исключением выдвижения кандидатов в независимые члены наблюдательного совета. Акционеры (акционер) вправе внести изменения в список выдвинутых ими кандидатов в наблюдательный совет и ревизионную комиссию (при ее наличии) Общества не позднее трех рабочих дней с даты опубликования сообщения о проведении общего собрания акционеров.<br>Кандидаты в независимые члены наблюдательного совета общества выдвигаются наблюдательным советом общества для рассмотрения общим собранием акционеров, как правило, на конкурсной основе. На обсуждение наблюдательного совета со стороны акционеров (акционера), являющихся в совокупности владельцами не менее чем одного процента голосующих акций Общества, могут быть внесены кандидатуры в независимые члены наблюдательного совета, отобранные на основе конкурса или с помощью специализированной компании («headhunter»). |
| 9.12. Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishi mumkin. | 9.12. Акционеры, в том числе миноритарные вправе заключать акционерные соглашения для формирования их совместной позиции при голосовании. |
| 9.13. Aksiyador (aksiyadorlar) yirik bitimni yoki affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizasini sudda ko‘rib chiqish chog‘ida Jamiyatdan va guvohlardan sud tomonidan ko‘rib chiqilayotgan ishga taalluqli bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha hujjatlarni olishga haqli, bundan davlat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi hujjatlar mustasno. | 9.13. Акционеры (акционер) при рассмотрении в суде искового заявления о признании недействительной крупной сделки или сделки, совершенной с аффилированным лицом, вправе получить от Общества и свидетелей все документы, которые могут иметь отношение к рассматриваемому судом делу, за исключением государственной тайны и составляющих иную тайну документов, охраняемых законом. |
| 9.14. Aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag‘iga kiritilgan Jamiyat Korporativ axborotning yagona portalida va Jamiyatning rasmiy veb-saytida boshqa yuridik shaxslarning 5 va undan ortiq foiz aksiyalariga | 9.14. В случае, если акции включены в биржевой котировальный лист фондовой биржи, Общество обязано опубликовать в Едином портале корпоративной информации и на официальном веб-сайте Общества |

| | |
|---|---|
| (ulushlariga, paylariga) egalik qilishi to‘g‘risidagi axborotni e’lon qilishi shart. Bunda mazkur axborot aksiyalar (ulushlar, paylar) olingan paytdan e’tiboran 72 soat ichida e’lon qilinishi kerak. | информацию о владении 5 и более процентами акций (долями, паями) других юридических лиц. При этом данная информация должна быть опубликована в течение 72 часов с момента приобретения акций (долей, паев). |
| 9.15. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish chog‘ida umumiy yig‘ilishda, kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilishi mumkin. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va masofadan turib elektron ovoz berishning umumiy tartibi qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi. | 9.15. При проведении общего собрания акционеров могут использоваться информационно-коммуникационные технологии, позволяющие обеспечивать возможность регистрации для дистанционного участия в общем собрании, обсуждении вопросов повестки дня и принятии решений по вопросам, поставленным на голосование. Общий порядок дистанционного участия в общем собрании акционеров и дистанционного электронного голосования с использованием информационно-коммуникационных технологий устанавливается уполномоченным государственным органом по регулированию рынка ценных бумаг. |
| **10. Kuzatuv kengashi** | **10. Наблюдательный совет** |
| 10.1. Jamiyatning kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. | 10.1. Наблюдательный совет Общества осуществляет общее руководство деятельностью Общества. |
| 10.2. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi: | 10.2. К компетенции наблюдательного совета Общества относится: |
| 1) Jamiyat rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash; | 1) определение приоритетных направлений деятельности Общества, с регулярным заслушиванием отчетов исполнительного органа и наблюдательного совета о мерах, осуществляемых по достижению стратегии развития Общества; |
| 2) Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, bundan O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonuni 65-moddasining o‘n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno; | 2) созыв годовых и внеочередных общих собраний акционеров Общества, за исключением случаев, предусмотренных частью одиннадцатой статьи 65 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров»; |
| 3) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayyorlash; | 3) подготовка повестки дня общего собрания акционеров; |
| 4) aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash; | 4) определение даты, времени и места проведения общего собрания; |
| 5) aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash; | 5) определение даты формирования реестра акционеров Общества для оповещения о проведении общего собрания акционеров; |
| 6) O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunining 59- | 6) внесение на решение общего собрания акционеров вопросов, предусмотренных абзацами вторым, двенадцатым части первой статьи 59 |

| | |
|---|---|
| moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun kiritish;<br>7) mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;<br>8) korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;<br>9) Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;<br>10) ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;<br>11) Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a’zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;<br>12) auditorlik tekshiruvini o‘tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;<br>13) Jamiyatning taftish komissiyasi (agar mavjud bo‘lsa) a’zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;<br>14) dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;<br>15) Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;<br>16) Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;<br>17) Jamiyatning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini tashkil etish;<br>18) O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunining 8-bobiga muvofiq balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilish. Qaror Jamiyat kuzatuv kengashining a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda kuzatuv kengashidan chiqib ketgan a’zolarning ovozi inobatga olinmaydi. Yirik bitim tuzish masalasi bo‘yicha Jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi masala kuzatuv kengashining | Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров;<br>7) определение рыночной стоимости имущества;<br>8) назначение корпоративного советника и утверждение положения о порядке его деятельности;<br>9) утверждение годового бизнес-плана Общества;<br>10) создание службы внутреннего аудита и назначение ее работников, утверждение Положения о службе внутреннего аудита, а также ежеквартальное заслушивание ее отчетов;<br>11) доступ к любым документам, касающимся деятельности исполнительного органа Общества, и получение их от исполнительного органа для осуществления возложенных на наблюдательный совет обязанностей. Полученные документы могут использоваться наблюдательным советом и его членами исключительно в служебных целях;<br>12) принятие решения о проведении аудиторской проверки (за исключением обязательной аудиторской проверки), об определении аудиторской организации и предельного размера оплаты ее услуг;<br>13) дача рекомендаций по размерам, выплачиваемых членам ревизионной комиссии (при ее наличии) Общества вознаграждений и компенсаций;<br>14) дача рекомендаций по размеру дивиденда по акциям и порядку его выплаты;<br>15) использование резервного и иных фондов Общества;<br>16) открытие представительств и создание филиалов Общества;<br>17) создание дочерних и зависимых предприятий Общества;<br>18) согласно главе 8 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров», решение о совершении крупной сделки, предметом которой является имущество, стоимость которого составляет от двадцати пяти до пятидесяти процентов балансовой стоимости активов Общества на дату принятия решения о совершении такой сделки, принимается наблюдательным советом единогласно, при этом не учитываются голоса выбывших членов наблюдательного совета. В случае если единогласие наблюдательного совета Общества по вопросу совершения крупной сделки не достигнуто, по решению наблюдательного совета вопрос о совершении |

| | |
|---|---|
| qaroriga ko‘ra aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin; | крупной сделки может быть вынесен на решение общего собрания акционеров; |
| 19) O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunining 9-bobiga muvofiq Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 19) принятие решения о заключении сделки с аффилированными лицами Общества в соответствии с главой 9 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров»; |
| 20) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog‘liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish; | 20) заключение сделок, связанных с участием Общества в других коммерческих и некоммерческих организация в порядке, предусмотренном законодательством; |
| 21) Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 21) принятие решения о выкупе корпоративных облигаций Общества; |
| 22) Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish masalalari to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 22) принятие решения об увеличении уставного фонда (уставного капитала) Общества; |
| 23) qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasini tasdiqlash; | 23) утверждение решения о выпуске ценных бумаг (акций, облигаций) и положения об эмиссии; |
| 24) qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasiga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish va ularning matnini tasdiqlash; | 24) внесение изменений и (или) дополнений в решения о выпуске ценных бумаг (акций, облигаций) и положения об эмиссии, утверждение их текстов; |
| 25) O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash; | 25) согласно статье 34 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» определение цены размещения акций (на биржевом рынке и на организованном внебиржевом); |
| 26) Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 26) принятие решения о выпуске Обществом корпоративных облигаций, в том числе облигаций, конвертируемых в акции Общества; |
| 27) qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish; | 27) принятие решения о выпуске производных ценных бумаг; |
| 28) Jamiyatning boshqaruv a’zolarini (raisidan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish; | 28) избрание (назначение) членов Правления Общества (за исключением председателя), досрочное прекращение их полномочий; |
| 29) Jamiyatning boshqaruv a’zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash; | 29) определение размеров оплаты и компенсаций, выплачиваемых членам Правления Общества; |
| 30) xayriya (homiylik) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash; | 30) определение порядка и условий оказания (получения) благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи; |
| 31) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadigan doirada xayriya (homiylik) yoki tekin yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilish. Davlat ishtirokidagi korxonalarning yillik xayriya xarajatlari o'tgan yil uchun olingan sof foydaning uch foizidan oshmasligi kerak va ularning biznes-reja ko'rsatkichlarini o'tgan hisobot yili uchun sof foyda bo'yicha | 31) принятие решения по оказанию благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи в рамках, определенных общим собранием акционеров. Ежегодные расходы предприятий с участием государства на благотворительность не должны превышать трех процентов их чистой прибыли, полученной за предыдущий год, и осуществляются при |

| | |
|---|---|
| bajargan holda amalga oshiriladi. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno); | выполнении показателей их бизнес-плана в части чистой прибыли за предыдущий отчетный год (за исключением случаев, предусмотренных решениями Президента Республики Узбекистан и Правительства Республики Узбекистан); |
| 32) korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash, agar Jamiyat ustavida bunday lavozimni joriy etish nazarda tutilgan bo‘lsa; | 32) назначение корпоративного консультанта и утверждение положения, определяющего порядок его деятельности, если в Уставе Общества предусмотрено введение такой должности; |
| 33) Jamiyat tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, joriy etish va uning qonunchilik talablariga muvofiqligini doimiy ravishda baholash ishlarini nazorat qilish hamda MHXSga muvofiq har yillik moliyaviy hisobotlarni e’lon qilinishiga o‘tkazishni ta’minlash; | 33) разработка, внедрение организационной структуры Общества и регулярное контролирование работ по оценке ее соответствия требованиям законодательства, а также обеспечение опубликования ежегодных финансовых отчетов в соответствии с Национальной системой бухгалтерского учета; |
| 34) Jamiyat kuzatuv kengashi qaroriga ko‘ra tanlov asosida korporativ boshqaruv tizimini baholashni o‘tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash; | 34) по решению наблюдательного совета Общества выбор по конкурсу независимой организации для проведения оценки системы корпоративного управления; |
| 35) Yangi ko‘chmas mulklarni sotib olish yoki qurish, xo‘jalik sub’ektlarining ustav kapitalidagi ulushlarni sotib olish va korxonaning asosiy faoliyatiga mos keladigan qo‘shimcha faoliyat turlarini amalga oshirish. Bu masala kengash vakolatiga faqat davlat ulushi mavjud bo‘lsagina kiradi; | 35) приобретение или строительство новых объектов недвижимости, приобретение долей в уставных капиталах хозяйственных обществ и осуществление дополнительной деятельности, соответствующей основной деятельности предприятия. Данный вопрос входит в компетенцию совета только при наличии государственной доли; |
| 36) Mulkni begonalashtirish, realizatsiya qilish shakllari va mexanizmlari bo‘yicha kelishuvlar (bitimlar, shartnomalar, memorandumlar va boshqalar) tuzish xulosalarini kelishish, davlat ishtirokidagi va ularning tarkibidagi korxonalarning ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiyalar kiritish. Bu masala kengash vakolatiga davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi bo‘lsagina kiradi. | 36) согласование заключения соглашения (сделки, договора, меморандумы и другое) по отчуждению, формам и механизмам реализации имущества, внесению инвестиций в уставный капитал предприятий с участием государства и предприятий в их составе третьими лицами. Данный вопрос входит в компетенцию совета только при наличии государственной доли в размере 50 процентов и более; |
| 37) Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a’zoligiga nomzodlarni aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi ko‘rib chiqishi uchun, qoida tariqasida tanlov asosida ko‘rsatish. Jamiyat kuzatuv kengashi muhokamasiga aksiyadorlar tomonidan ham tanlov asosida yoki ixtisoslashtirilgan kompaniyalar (“headhunter”) yordami bilan tanlab olingan mustaqil a’zolik uchun nomzodlar taqdim etilishi mumkin. | 37) выдвижение кандидатов в независимые члены наблюдательного совета общества для рассмотрения общим собранием акционеров, как правило, на конкурсной основе. На обсуждение наблюдательного совета со стороны акционеров (акционера), являющихся в совокупности владельцами не менее чем одного процента голосующих акций Общества, могут быть внесены кандидатуры в независимые члены наблюдательного совета, отобранные на основе конкурса или с помощью специализированной компании («headhunter»). |
| 10.3. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini | 10.3. К компетенции Наблюдательного совета Общества может быть отнесено решение и иных вопросов в соответствии с Законом Республики |

| | |
|---|---|
| himoya qilish to‘g‘risida»gi qonuni va mazkur ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.<br>10.4. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning ijroiya organiga o‘tkazilishi mumkin emas.<br>10.5. Jamiyat kuzatuv kengashining a’zolari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Jamiyat kuzatuv kengashning son tarkibi 9 kishidan iborat, bunda kuzatuv kengashi tarkibiga kiritiladigan mustaqil a’zolar soni 2 kishi.<br>Shuningdek, kuzatuv kengashi tarkibiga xalqaro mutaxassislarni (shu jumladan vatandoshlarni) va xorijiy tajribaga ega malakali mutaxassislarini jalb etish mumkin.<br>10.6. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.<br>10.7. Jamiyat boshqaruvi raisi va a’zolari Jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.<br>10.8. Ayni shu Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyatning kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lishi mumkin emas.<br>10.9. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo‘yiladigan talablar mazkur Ustavda yoki aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo‘yilishi mumkin.<br>10.10. Jamiyatning kuzatuv kengashi a’zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.<br>10.11. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo‘lgan mustaqil a’zolar va boshqa a’zolar soniga alohida ko‘paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqli.<br>10.12. Eng ko‘p ovoz to‘plagan nomzodlar Jamiyat kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.<br>10.13. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan saylanadi. | Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» и настоящим Уставом.<br>10.4. Вопросы, отнесенные к компетенции наблюдательного совета Общества, не могут быть переданы на решение исполнительного органа Общества.<br>10.5. Члены наблюдательного совета Общества избираются общим собранием акционеров сроком на три года. Наблюдательный совет Общества состоит из 9 человек, при этом количество независимых членов, входящих в состав наблюдательного совета, составляет 2 человека.<br>Также возможно привлечение в Наблюдательный совет международных экспертов (в том числе соотечественников) и квалифицированных специалистов с зарубежным опытом.<br>10.6. Лица, избранные в состав наблюдательного совета Общества, могут переизбираться неограниченно.<br>10.7. Председатель Правления Общества и его члены не могут быть избраны в наблюдательный совет.<br>10.8. Членами наблюдательного совета Общества не могут быть лица, работающие по трудовому договору (контракту) в этом же Обществе.<br>10.9. Требования, предъявляемые к лицам, избираемым в состав наблюдательного совета Общества, могут устанавливаться настоящим Уставом или решением, утвержденным общим собранием акционеров.<br>10.10. Выборы членов наблюдательного совета Общества осуществляются кумулятивным голосованием.<br>10.11. При кумулятивном голосовании число голосов, принадлежащих каждому акционеру, умножается отдельно на число независимых и других членов наблюдательного совета, которые должны быть избраны в наблюдательный совет Общества, и акционер вправе отдать полученные таким образом голоса полностью за одного кандидата или распределить их между двумя и более кандидатами.<br>10.12. Лица, набравшие максимальное количество голосов, считаются избранными в наблюдательный совет.<br>10.13. Председатель наблюдательного совета Общества избирается членами наблюдательного совета из его состава большинством голосов от общего числа членов наблюдательного совета. |

| | |
|---|---|
| 10.14. Jamiyatning kuzatuv kengashi o‘z raisini kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli. | 10.14. Наблюдательный совет Общества вправе переизбрать своего председателя большинством голосов от общего числа членов наблюдательного совета. |
| 10.15. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida raislik qiladi.<br>10.16. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi bo‘lmagan taqdirda uning vazifasini kuzatuv kengashining a’zolaridan biri amalga oshiradi. | 10.15. Председатель наблюдательного совета Общества организует его работу, созывает заседания наблюдательного совета и председательствует на них, организует на заседаниях ведение протокола, председательствует на общем собрании акционеров.<br>10.16. В случае отсутствия председателя наблюдательного совета Общества, его функции осуществляет один из членов наблюдательного совета. |
| 10.17. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o‘z tashabbusiga ko‘ra, Jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (agar mavjud bo‘lsa), Boshqaruv a’zosining va ichki audit xizmati boshlig‘i, shuningdek Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) talabiga ko‘ra chaqiriladi.<br>10.18. Jamiyat kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Ijroiya organinig hisobotlarini eitish bo‘yicha majlislar shaxsan qatnashish yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (videokonferensaloqa) foydalangan holda o‘tkaziladi. | 10.17. Заседания наблюдательного совета созываются председателем наблюдательного совета по собственной инициативе, по требованию члена наблюдательного совета, ревизионной комиссии (при ее наличии), Правления и начальника службы внутреннего аудита, а также акционеров (акционера), обладающих в совокупности не менее одним процентом голосующих акций Общества.<br>10.18. Заседания наблюдательного совета Общества созываются председателем наблюдательного совета не реже одного раза в квартал. Заседания по заслушиванию отчетов исполнительного органа проводятся в очной форме или с использованием информационно-коммуникационных технологий (видеоконференцсвязь). |
| 10.19. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o‘tkazish uchun kvorum Jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a’zolarning yetmish besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.<br>10.20. Jamiyat kuzatuv kengashi a’zolarining soni mazkur ustavda nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo‘lgan taqdirda, Jamiyat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a’zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat Boshqaruv raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.<br>10.21. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar ushbu Ustavda yoki Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish va o‘tkazish tartibini belgilovchi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, hozir bo‘lganlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. | 10.19. Кворум для проведения заседания наблюдательного совета должен быть не менее семидесяти пяти процентов от числа избранных членов наблюдательного совета.<br>10.20. Если количество членов Наблюдательного совета менее семидесяти пяти процентов от количества, указанного в настоящем Уставе, Общество обязано созвать внеочередное общее собрание акционеров для выборов нового состава Наблюдательного совета. Оставшиеся члены Наблюдательного совета вправе принять решение о созыве такого внеочередного общего собрания акционеров, а также в случае досрочного прекращения полномочий руководителя исполнительного органа Общества, назначить временно исполняющего его обязанности.<br>10.21. Решения на заседании наблюдательного совета Общества принимаются большинством голосов присутствующих, если настоящим Уставом или законом, определяющим порядок созыва и проведения заседания наблюдательного совета, не предусмотрено иное. |

| | |
|---|---|
| 10.22. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. | 10.22. При решении вопросов на заседании наблюдательного совета Общества каждый член наблюдательного совета обладает одним голосом. |
| 10.23. Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi. | 10.23. Передача голоса одним членом наблюдательного совета Общества другому члену наблюдательного совета не допускается. |
| 10.24. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengash a'zolarining ovozi teng bo'lgan hollarda hal qiluvchi ovozga ega. | 10.24. При принятии наблюдательным советом решения в случае равенства голосов членов наблюдательного совета право решающего голоса принадлежит председателю наблюдательного совета Общества. |
| 10.25. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:<br>majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;<br>majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;<br>majlisning kun tartibi;<br>ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;<br>qabul qilingan qarorlar. | 10.25. На заседании наблюдательного совета Общества ведется протокол. Протокол заседания наблюдательного совета составляется не позднее 10 дней после его проведения. В протоколе заседания указываются:<br>дата, время и место его проведения;<br>лица, участвующие в заседании, в том числе дистанционно с использованием информационно-коммуникационных технологий;<br>повестка дня заседания;<br>вопросы, поставленные на голосование, итоги голосования по ним;<br>принятые решения. |
| 10.26. Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin, ijroiya organlarining hisobotlarini eshitish bo'yicha har chorakda o'tkaziladigan kuzatuv kengashlari majlislari bundan mustasno. | 10.26. Решения Наблюдательного совета могут приниматься путем заочного голосования (путем опроса) единогласным голосованием всеми членами наблюдательного совета Общества, за исключением проведения ежеквартальных заседаний наблюдательных советов по заслушиванию отчетов исполнительных органов. |
| 10.27. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijroiya organiga kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi. | 10.27. В день подписания протокола заседания наблюдательного совета Общества, он сдается на исполнение исполнительному органу Общества. В случае принятия наблюдательным советом решения о созыве общего собрания акционеров, информация о данном решении сдается исполнительному органу Общества в день проведения собрания Наблюдательного совета. |
| 10.28. Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda Ustav va Qonunda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi. | 10.28. Независимый член наблюдательного совета общества наряду с другими членами наблюдательного совета имеет равные права и обязанности, установленные Законом и Уставом Общества. |
| **11. Ijroiya organi** | **11. Исполнительный орган** |
| 11.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish <u>kollegial ijroiya organi (Boshqaruv)</u> tomonidan amalga oshiriladi. | 11.1. Руководство текущей деятельностью Общества осуществляется <u>коллегиальным исполнительным органом (Правлением).</u> |

| | |
|---|---|
| 11.2. Jamiyat Boshqaruvi 5 (besh) kishidan iborat bo‘lib (Boshqaruv raisi, uning birinchi o‘rinbosari va 2 o‘rinbosarlari va 1 ta departament rahbari) uch yil muddatga saylanadilar (tayinlanadilar).<br>Bunda, Jamiyatning ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lsa ijroiya organi rahbari etib tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq ijro organining rahbari bo‘lishi mumkin emas.<br>Jamiyat Boshqaruv raisi Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi Boshqaruvi a’zolari esa Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan saylanadilar (tayinlanadilar).<br>Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining yoki (yoxud) kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra Jamiyat Boshqaruv raisini va a’zolarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik (xalqaro) menejerlar (shu jumladan vatandoshlarni) va xorijiy tajribaga ega malakali mutaxassislar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov bo‘yicha saralash asosida amalga oshiriladi.<br>Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki (yoxud) Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra Jamiyat Boshqaruv raisini va Boshqaruv a’zolarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov bo‘yicha saralash asosida amalga oshiriladi.<br>11.3. Jamiyat boshqaruv raisi vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, Jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini vaqtincha bajarib turishiga yo‘l qo‘yiladi.<br>11.4. Jamiyat Boshqaruvining vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.<br>11.5. Jamiyatning Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining va Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.<br>11.6. Jamiyat boshqaruv raisining vakolatlari (huquqlari) va majburiyatlariga qo‘yidagilar kiradi:<br>1) o‘z vakolatlari doirasida Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;<br>2) Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalash;<br>3) Jamiyat nomidan ishonchnomalarni berish; | 11.2. Правление Общества состоит из 5 (пяти) человек (председатель Правления, его первый заместитель и 2 заместителя и 1 руководитель департамента), избираемых (назначаемых) на срок три года.<br>При этом в случае наличия государственной доли в размере 50 процентов и более в уставном фонде общества, лицо, назначенное (переназначенное) в качестве руководителя исполнительного органа, не может быть руководителем исполнительного органа более двух сроков подряд.<br>Председатель Правления Общества избирается (назначается) общим собранием акционеров, а члены Правления - наблюдательным советом Общества.<br>По решению общего собрания акционеров или (либо) наблюдательного совета Общества, назначение председателя Правления и членов Правления Общества, осуществляется, как правило, путем отбора по конкурсу, в котором могут принимать участие и иностранные (международных) менеджеров (в том числе соотечественников) и квалифицированные специалисты с зарубежным опытом.<br>По решению общего собрания акционеров либо наблюдательного совета Общества председателя Правления и членов Правления Общества, осуществляется, как правило, на основе конкурсного отбора, в котором могут принимать участие иностранные менеджеры.<br>11.3. В случае досрочного прекращения полномочий председателя Правления Общества допускается временное исполнение его обязанностей лицом, назначенным решением наблюдательного совета.<br>11.4. К компетенции Правления Общества относятся все вопросы руководства текущей деятельностью Общества, за исключением вопросов, отнесенных к исключительной компетенции общего собрания акционеров или компетенции наблюдательного совета.<br>11.5. Правление Общества организует выполнение решений общего собрания акционеров и наблюдательного совета.<br>11.6. К полномочиям (правам) и обязанностям председателя Правления Общества относятся:<br>1) руководство работой Общества в рамках своей компетенции;<br>2) без доверенности ведение дела от имени Общества, представление его интересов;<br>3) выдача доверенностей от имени Общества; |

| | |
|---|---|
| 4) o‘z vakolatlari doirasida, Jamiyat nomidan bitimlar tuzish; | 4) совершение сделок от имени Общества в рамках своих полномочий; |
| 5) xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarni tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qullash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta’minlash; | 5) принятие работников на работу, заключение и прекращение с ними трудовых договоров, применение к ним мер дисциплинарного взыскания, обеспечение поддержания работниками трудовой и исполнительской дисциплины; |
| 6) Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini lavozimiga tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod etish; | 6) назначение руководителя филиала или представительства Общества и освобождение их от должности; |
| 7) Boshqaruv a’zolari bilan kelishilgan holda Jamiyat vakolatxonalarni va filiallari uchun majburiy bo‘lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish; | 7) по согласованию с членами Правления принятие решений, приказов и распоряжений, обязательных для представительств и филиалов Общества; |
| 8) shtatlarni tasdiqlash; | 8) утверждение штатов; |
| 9) Jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish; | 9) издание приказов и дача указаний, подлежащих исполнению всеми работниками Общества; |
| 10) Jamiyat kuzatuv kengashining roziligiga ko‘ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish; | 10) по согласию наблюдательного совета Общества принятие участия в его работе с консультационным голосом; |
| 11) banklarda hisob raqamlar (milliy va xorijiy valyuta hisob raqamlar) ochish; | 11) открытие в банках расчетных счетов (счетов в национальной и иностранной валютах); |
| 12) Jamiyatning bank va boshqa moliya hujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo‘lish; | 12) иметь право первой подписи в банковские и другие финансовые документы Общества; |
| 13) davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to‘liq va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlash; | 13) обеспечение полного и своевременного представления в соответствующие органы государственного статистического отчета и бухгалтерской отчетности; |
| 14) Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ularning mehnatini muhofaza qilishni ta’minlash; | 14) обеспечение соблюдения социальных гарантий работников Общества и охраны их труда; |
| 15)Jamiyat boshqaruvi raisi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, mazkur ustav va Jamiyatning ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega. | 15) председатель Правления Общества имеет и другие полномочия (права) и обязательства в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, настоящим Уставом и внутренними нормативными документами Общества. |
| 11.7. Jamiyat boshqaruvining vakolatlari (huquqlari) va majburiyatlariga qo‘yidagilar kiradi: | 11.7. К полномочиям (правам) и обязанностям Правления Общества относятся: |
| 1) o‘z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag‘larini tassaruf etish; | 1) распоряжение имуществом и денежными средствами Общества в рамках своих полномочий; |
| 2) Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo‘riqnomalarini tasdiqlash; | 2) утверждение положений о структурных подразделениях Общества, должностных инструкций работников; |

| | |
|---|---|
| 3) Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va kuzatuv kengashining vakolatlariga kiradiganlar bundan mustasno; | 3) утверждение внутренних нормативных документов Общества, за исключением вопросов, отнесенных к компетенции общего собрания акционеров и наблюдательного совета; |
| 4) Jamiyatni rivojlantirish strategiyasini va biznes-rejalarini ishlab chiqish, ularni bajarilishini nazorat qilish; | 4) разработка стратегии развития и бизнес-плана Общества и контроль за их исполнением; |
| 5) Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan mikdorlarda foyda olishni ta'minlash; | 5) обеспечение получения прибыли в размерах указанных в бизнес-плане, утвержденном уполномоченным органом управления Общества; |
| 6) qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi va ishonchliligini, hamda aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash; | 6) обеспечение организации и достоверности бухгалтерского учета и отчетности в Обществе в соответствие с законодательством, а также представление сведений о деятельности Общества, направляемых акционерам, кредиторам и другим получателям; |
| 7) Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar Jamiyatning kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (agar mavjud bo'lsa) va Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish; | 7) представление документов о финансово-хозяйственной деятельности Общества по требованию наблюдательного совета, ревизионной комиссии (при наличии) и аудитора Общества; |
| 8) balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish (bitim tuzish masalasida Jamiyat boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Jamiyat boshqaruvi qaroriga muvofiq kuzatuv kengashi hukmiga havola etilishi mumkin); | 8) совершение в рамках своей компетенции сделки, связанной с приобретением, отчуждением или возможностью отчуждения имущества Общества балансовая стоимость до пятнадцати процентов чистых активов компании на дату принятия решения (при не достижении солидарности управления Обществом в вопросе заключения соглашения, вопрос о заключении соглашения, по решению Правления Общества, может быть передан на рассмотрение наблюдательному совету); |
| 9) Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash; | 9) хранение информаций составляющих коммерческую тайну Общества; |
| 10) dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish; | 10) соблюдение всех прав акционеров по начислению и выплате дивидендов; |
| 11) o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash; | 11) обеспечение эффективной и устойчивой работы Общества в рамках своей компетенции; |
| 12) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish; | 12) соблюдение законодательства Республики Узбекистан, а также внутренних документов Общества; |
| 13) Boshqaruv Jamiyat kasaba uyushmasi ishtirokida Jamiyat sof foydasining 1 (bir) foizi miqdori doirasida xayriya (homiylik) va beg'araz yordam ko'rsatishga haqli; | 13) Правление при участии профсоюза Общества вправе оказывать благотворительную (спонсорскую) и безвозмездную помощь в пределах 1 (одного) процента чистой прибыли Общества; |
| 14) Jamiyatning Boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, mazkur ustav va Jamiyatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (xuquqlar) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin. | 14) Правление Общества может иметь другие полномочия (права) и обязанности в соответствие с законодательством Республики Узбекистан, а также внутренними документами Общества. |
| 11.8. Jamiyat Boshqaruvi raisi va a'zolarining huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida, mazkur ustavda hamda ularning har biri Jamiyat bilan uch | 11.8. Права и обязанности председателя Правления Общества и его членов определяются законодательством, настоящим Уставом Общества и |

| | |
|---|---|
| yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to‘g‘risida har yili qaror qabul qilinadi. | договором, заключаемым Обществом с каждым из них на срок три года, с ежегодным принятием решения о возможности его продления или прекращения. |
| Shartnoma Jamiyat nomidan Jamiyat kuzatuv kengashining raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. | Договор от имени Общества подписывается председателем Наблюдательного совета или лицом, уполномоченным Наблюдательным советом Общества. |
| Jamiyat Boshqaruv raisi va boshqaruv a’zolari bilan tuziladigan shartnomada uning Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha majburiyatlari hamda Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi va kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi, ularning harakatlari (harakatsizligi) natijasida korxona manfaatlariga yetkazilgan har qanday zarar va yo‘qotishlar, jarimalar, penyalar va boshqa majburiy to‘lovlar uchun subsidiar javobgarlik nazarda tutilishi kerak. | В заключаемом договоре с председателем Правления и членами Правления Общества должны быть предусмотрены его обязательства по повышению эффективности деятельности Общества и периодичность отчетов перед Общим собранием акционеров и Наблюдательным советом Общества о ходе выполнения годового бизнес-плана Общества, субсидиарная ответственность за любой ущерб и убытки, штрафы, пени и иные обязательные платежи, причиненные интересам предприятия в результате их действий (бездействия). |
| 11.9. Jamiyatning Boshqaruvi raisi va a’zolariga to‘lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi va ular bilan tuziladigan shartnomada belgilangan bo‘lishi kerak. | 11.9. Размеры вознаграждений, выплачиваемых председателю Правления Общества и его членам, находятся в прямой зависимости от эффективности деятельности Общества и должны быть определены заключаемом с ними договоре. |
| Jamiyatning Boshqaruv raisi va a’zolariga haq to‘lash aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan “Jamiyat ijroiya organi a’zolari mehnatiga haq to‘lash to‘g‘risida”gi Nizomga asosan amalga oshiriladi. | Выплата вознаграждений председателю Правления Общества и его членам осуществляются на основании Положения «Об оплате труда членам исполнительного органа Общества», утвержденного общим собранием акционеров. |
| 11.10. Jamiyatning Boshqaruv raisi va a’zolarining vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat Jamiyat kuzatuv kengashining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. | 11.10. Совмещение председателем Правления Общества и его членами должностей в органах управления других организаций допускается только с согласия наблюдательного совета Общества. |
| 11.11. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomani u shartnoma shartlarini buzgan taqdirda tugatishga (bekor qilishga) haqli. Jamiyat kuzatuv kengashi boshqaruv a’zolari bilan tuzilgan shartnomani ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda tugatishga (bekor qilishga) haqli. | 11.11. Наблюдательный совет вправе прекратить (расторгнуть) договор с председателем Правления Общества при нарушении им условий договора. Наблюдательный совет Общества вправе прекратить (расторгнуть) договор с членами Правления Общества при нарушении ими условий договора. |
| 11.12. Jamiyat kuzatuv kengashi Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomani, agar u Jamiyat ustavini qo‘pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo‘lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega. | 11.12. Наблюдательный совет имеет право досрочного прекращения (расторжения) договора с председателем Правления Общества при совершении им грубых нарушений устава Общества или причинения Обществу убытков своими действиями (бездействием). |
| 11.13. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan Jamiyat Boshqaruv raisining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, Jamiyat Boshqaruv raisining vakolatlarini boshqa shaxsga o‘tkazish | 11.13. В случае принятия общим собранием акционеров решения о прекращении полномочий председателя Правления Общества вопрос о передаче полномочий председателя Правления Общества может быть |

| | |
|---|---|
| to‘g‘risidagi masala o‘sha yig‘ilishning o‘zida hal etilishi yoxud Jamiyat Boshqaruv raisining vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin.<br>11.14. Boshqaruv raisining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan Jamiyat kuzatuv kengashi Jamiyat Boshqaruv raisining vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi, shuningdek Jamiyatning Boshqaruv raisi to‘g‘risidagi masalani hal etish uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqiradi.<br>11.15. Jamiyatning minoritar aksiyadori asossiz ravishda hujjatlarni talab qilib olish va maxfiy ma’lumotlardan, tijorat siridan foydalanish orqali Jamiyat Boshqaruv organlari faoliyatiga to‘sqinlik qilishi mumkin emas.<br><br>11.16. Jamiyat aksiyalarining 50 va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha mazkur Jamiyat aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarining 50 foizidan kamrog‘iga egalik qilgan bo‘lsa, qolgan aksiyalar egalariga aksiyalarni bozor qiymati bo‘yicha o‘ziga sotishlari borasidagi taklifini o‘ttiz kun ichida e’lon qilishi shart. Aksiyadorning o‘ziga tegishli aksiyalarni sotishi to‘g‘risidagi yozma roziligi e’lon qilingan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida olingan taqdirda, Jamiyatning 50 va undan ortiq foiz aksiyalari egasi mazkur aksiyalarni sotib olishi shart.<br>11.17. Davlat ishtirokidagi korxonaning boshqaruv organlari korxonaga va ulushi 50 foizdan ortiq bo’lgan korxonalarga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish yoki ularning xo’jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etishi, yagona ta’sischi bo’lgan korxonalarni qayta tashkil etish bo’yicha kelishuvlarni hamda yirik ko’chmas mulk obyektlarni sotish masalalarini O’zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.<br><br>**12. Jamiyatning faoliyatini nazorat qilish**<br><br>12.1. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan bir yil muddatga 3 a’zodan iborat taftish komissiyasi tuzilishi mumkin.<br>12.2. Taftish komissiyasining faoliyati (agar mavjud bo‘lsa) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan Taftish komissiyasi to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solinadi. | решен на том же собрании либо оставлен для рассмотрения на ближайшем общем собрании акционеров с назначением временно исполняющего обязанности председателя Правления Общества.<br><br>11.14. Наблюдательный совет Общества, принявший решение о прекращении полномочий председателя Правления Общества, принимает решение о назначении временно исполняющего обязанности председателя Правления органа, а также созывает внеочередное общее собрание акционеров для решения вопроса о председателе Правления Общества.<br>11.15. Миноритарные акционеры Общества не могут препятствовать деятельности органов управления Общества путем необоснованного затребования документы и использования конфиденциальных сведений, коммерческой тайны.<br>11.16. Лицо, которое стало владельцем 50 и более процентов акций Общества, в течение тридцати дней обязано объявить предложение владельцам остальных акций продать ему акции по рыночной стоимости, если до этого лицо не владело акциями или владело менее 50 процентами акций данного Общества. В случае получения в течение тридцати дней со дня объявления письменного согласия акционера о продаже принадлежащих ему акций, владелец 50 и более процентов акций Общества обязан купить данные акции.<br>11.17. Органы управления предприятия с государственным участием согласуют с Агентством по управлению государственными активами вопросы по внесению инвестиций в данные предприятия и предприятия, в которых их доля составляет более 50 процентов, третьими лицами либо об участии третьих лиц в уставном капитале их хозяйственных обществ, о соглашениях по реорганизации предприятий, являющихся единственным учредителем, а также о реализации крупных объектов недвижимости.<br><br>**12. Контроль над деятельностью Общества**<br><br>12.1. Общим собранием акционеров может быть создана ревизионная комиссия в составе 3 (трех) человек на срок один год для контроля над финансово-хозяйственной деятельностью Общества.<br>12.2. Деятельность ревизионной комиссии (при наличии) регламентируется Положением о ревизионной комиссии, утверждаемого общим собранием акционеров. |

| | |
|---|---|
| 12.3. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining (agar mavjud bo‘lsa), aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining, Jamiyat kuzatuv kengashining tashabbusiga ko‘ra yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko‘ra Jamiyat kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo‘li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo‘yicha amalga oshiriladi.<br>12.4. Aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming barobaridan ko‘p bo‘lgan Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.<br>12.5. Jamiyatning ichki audit xizmati Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta’minlanishini, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.<br>12.6. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat moliya-xo‘jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.<br>12.7. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto‘g‘ri xulosani o‘z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo‘ladi.<br>12.8. Zarur bo‘lgan hollarda Jamiyat kuzatuv kengashiga hisobdor bo‘lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi Jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etilishi mumkin.<br>12.9. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi. | 12.3. Проверка финансово-хозяйственной деятельности Общества проводится по инициативе ревизионной комиссии (при наличии), общего собрания акционеров, наблюдательного совета Общества, а также по требованию акционера (акционеров), владеющего не менее чем пятью процентами голосующих акций Общества, с предварительным уведомлением наблюдательного совета Общества по итогам деятельности за один год или иной период.<br>12.4. Если балансовая стоимость активов Общества составит более ста тысяч базовых расчетных величин, будет создана служба внутреннего аудита. Служба внутреннего аудита Общества подотчетна наблюдательному совету.<br>12.5. Служба внутреннего аудита Общества осуществляет контроль и оценку работы исполнительного органа, филиалов и предприятий Общества путем проверок и мониторинга соблюдения ими законодательства, учредительных документов Общества и других документов, обеспечения полноты и достоверности отражения данных в бухгалтерском учете и финансовой отчетности, установленных правил и процедур осуществления хозяйственных операций, сохранности активов, а также соблюдения установленных законодательством требований по управлению Обществом.<br>12.6. Аудиторская организация осуществляет проверку финансово-хозяйственной деятельности Общества и представляет аудиторское заключение в порядке, установленном законодательством, в соответствии с заключенным с Обществом договором.<br>12.7. Аудиторская организация несет ответственность перед Обществом за причинение ущерба вследствие составления аудиторского заключения, содержащего неправильный вывод о финансовой отчетности и иной финансовой информации Общества.<br>12.8. При необходимости в Обществе может быть введена должность корпоративного консультанта, который отчитывается перед Наблюдательным советом и выполняет функции контроля над соблюдением корпоративных законодательных документов в деятельности Общества.<br>12.9. Деятельность корпоративного консультанта Общества осуществляется на основании Положения, утвержденного Наблюдательным советом Общества. |

| 13. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining va Jamiyat Boshqaruv a'zolarining javobgarligi | 13. Ответственность членов наблюдательного совета Общества и членов Правления Общества |
|---|---|
| 13.1. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari va Jamiyat boshqaruvi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.<br>13.2. Agar ushbu modda qoidalariga muvofiq bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.<br>13.3. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi, Qonunning 90-moddasida belgilangan hollar mustasno.<br>13.4. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi yoki boshqaruv a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.<br>13.5. Sud Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini yoki Boshqaruv a'zosini Jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a'zoning yoki boshqaruv a'zosining vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, ularning xo'jalik Jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashi taqiqlangan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin.<br>13.6. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi yoki Boshqaruvi a'zosi Jamiyatga chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganligi yoxud o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida yirik bitim tuzishni va (yoki) yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilishni taklif etganligi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.<br>13.7 Agar Jamiyatning Ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida Jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda Jamiyat Boshqaruv raisining yoki boshqaruv a'zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, Jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi. | 13.1. Члены наблюдательного совета Общества и члены Правления Общества при осуществлении своих прав и выполнении своих обязанностей действуют, преследуя интересы Общества, и несут ответственность в установленном порядке.<br>13.2. Если согласно положениям данной статьи ответственны несколько лиц, они несут солидарную ответственность перед Обществом.<br>13.3. Не несут ответственности члены наблюдательного совета Общества и члены Правления Общества, не принимавшие участия в голосовании или голосовавшие против решения, которое повлекло причинение Обществу убытков, за исключением обстоятельств, определенных в статье 90 Закона.<br>13.4. Общество или акционер (акционеры), являющийся владельцем не менее чем одного процента размещенных акций Общества, вправе обратиться в суд с иском к члену наблюдательного совета или члену правления Общества о возмещении убытков, причиненных Обществу.<br>13.5. В случае если судом член наблюдательного совета или член правления Общества признан виновным в причинении имущественного ущерба Обществу, полномочия данного члена или члена правления могут быть по решению суда прекращены на срок не менее одного года, с запрещением занимания руководящих должностей в Обществе.<br>13.6. Член наблюдательного совета или член Правления Общества может быть привлечен к ответственности за представление Обществу вводящей в заблуждение информации или умышленно ложной информации либо за ущерб, причиненный в результате предложения принятия решения о совершении крупной сделки и (или) совершения крупной сделки с целью получения прибыли (дохода) самими или их аффилированными лицами и (или) совершении сделок с аффилированными лицами.<br>13.7. Если в результате нарушения исполнительным органом общества порядка заключения крупной сделки или сделки с аффилированными лицами был причинен ущерб обществу и при этом в установленном законодательством порядке будет доказана вина Председателя правления или членов правления общества либо доверительного управляющего, они несут субсидиарную ответственность по обязательствам общества по возмещению задолженности перед кредиторами в случае недостаточности его имущества. |

| 14. Yakuniy qoidalar | 14. Заключительные положения |
|---|---|
| 14.1. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va o'z vakolatlari doirasida kuzatuv kengashi tomonidan mazkur Ustavga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organida belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi. | 14.1. Все изменения и дополнения, вносимые в настоящий Устав по решению Общего собрания акционеров в рамках своих полномочий Наблюдательным советом, регистрируются соответствующим государственным органом Республики Узбекистан. |
| 14.2. Jamiyat Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. | 14.2. Изменения и дополнения в настоящий Устав или Устав Общества в новой редакции приобретают силу для третьих лиц с момента их государственной регистрации, а в случаях, установленных действующим законодательством, с момента уведомления органа, осуществляющего государственную регистрацию. |
| 14.3. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi. | 14.3. При утере своей силы одного из положений настоящего устава, настоящее положение не может стать причиной прекращения других положений. |
| 14.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo'llaniladi. | 14.4. Если действующими законодательными актами Республики Узбекистан установлены иные положения, чем предусмотрено настоящим Уставом, то применяются положения действующего законодательства Республики Узбекистан. |
| 14.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish bilan bog'liq masalalar amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi va Jamiyatning aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi. | 14.5. Вопросы, связанные с созывом и проведением общего собрания акционеров, регламентируются действующим законодательством и определяются положением о проведении общего собрания акционеров Общества. |
| 14.6. Jamiyat kuzatuv kengashi, ijroiya organi va taftish komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan nizomlarda belgilanadi. | 14.6. Порядок функционирования наблюдательного совета, исполнительного органа и ревизионной комиссии Общества, определяется положениями утверждаемыми общим собранием акционеров. |
| 14.7. Mazkur Ustavda tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi. | 14.7. Отношения неурегулированные в настоящем Уставе, регулируются законодательством Республики Узбекистан. |

**Boshqaruv raisi** [signature] **R.A. Yusupjonov**